

BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI

H.T.Mahmudova

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

Tibbiy xodimlar o'z kasbiy vazifalarini bajarishlaridagi amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlar va xulq tamoyillari bu etikadir. Zamonaviy g'oyalarga ko'ra, ahloqiy me'yorlarning quyidagi jihatlarni bor. Tibbiy amaliyotda axloq me'yorlari va qoidalarini shakllantirish va qo'llash masalalari bo'lgan tibbiy amaliyot sohasi mavjud bo'lib bu tibbiy etikadir. Uning uchta asosiy yo'nalish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni va ular orasidagi turli muammolarini hal qilishni o'rganadi. Bu tibbiy xodim-bemor, tibbiy xodim-bemorning yaqinlari, tibbiy xodim-tibbiy xodim kabilaridir. Tibbiyot sohasidagi har qanday ishchi shafqat, mehribonlik, sezgirlik va javobgarlik, bemorga g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Ibn Sino bemorga alohida yondashuv haqida: "Siz har bir kishining shaxsan o'ziga xos tabiati borligini bilishingiz kerak. Ularga hech kimga o'xshamaydigan noyob bemor sifatida qarashingiz kerak. Bunday munosabatlar nafaqat nutq madaniyatini, balki xushmuomalalik hissi, bemorning kayfiyatini ko'tarishi mumkin. Tibbiyot kasbida alohida ahamiyatga ega bo'lgan suhbatdoshga hurmat va uni eshitish qobiliyati, suhbat mazmuniga qiziqishi va bemorning fikri, nutqning to'g'ri va qulay tarzda ifodalashi kabi universal normalar mavjud. Tibbiy xodimlarning tashqi ko'rinishi ham juda muhimdir: Toza libos va bosh kiyimi, poyabzal, tirnoqi olingan, qo'llari toza va har xil taqinchoqlardan xoli bo'lishi hamda o'zi kamtar bo'lishi zarur. Hattoki qadimgi hind tabiblari shifokor o'z izdoshlariga "Sizni endi, g'azab, ochko'zlik, aqlsizlik, hasad, masxara bozlik, dangasalik va har bir yomon xulq tark etadi" deya tahsil berishgan. Tibbiy xodimning axloqiy mas'uliyati tibbiy etikaning barcha printsiplariga rioya qilishni nazarda tutadi. Bemorlarga tashxis qo'yish, davolash, davolanish holati, o'rta va kichik tibbiyot xodimlarining noto'g'ri hatti-harakatlari bemorlarning jismoniy va ma'naviy azoblanishiga olib kelishi mumkin. Tibbiyot xodimining tibbiy sirlarni oshkor qilishi, tibbiy yordamdan voz kechishi va h.k.ga yo'l qo'yilishi mumkin emas. Bemorga maksimal e'tibor berish, uni tinchlantirish, rejimga rioya qilish zarurligini tushuntirish, dori-darmonlarni muntazam iste'mol qilishini nazorat qilish, sog'lig'ini saqlash yoki vaziyatni yaxshilashga ishonirishi kerak. Bemorlar, ayniqsa, saraton kasalligiga chalingan bemorlar bilan gaplashishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Hozirgi vaqtda antik davrning buyuk shifokori Gippokratning aytgan so'zlari muhimdir: "Bemorni sevish va oqilona tasalli bilan o'rab olishlari, lekin eng muhimi, unga uni tahdid qiladigan narsalar haqida bildirmasliklari zarur". Ayrim mamlakatlarda bemorga kasallikning jiddiyligi, shu jumladan, o'lim (o'limga sabab bo'ladigan kasallik) ijtimoiy-iqtisodiy sabablar haqida ma'lumot beriladi. Masalan AQShda bemor hatto saraton o'simtasining tashxisini yashirgan shifokorga qarshi da'vo arizasi berish huquqiga egadirlar. Yatrogenik kasalliklar bu bemor bilan muloqotning deontologik printsiplarini buzilishi, kasallikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bunda kasallik shifokor yoki boshqa tibbiy xodimning beparvoligi yoki nojo'ya harakatlaridan kelib chiqadi. Bemorga og'zaki muloqotlarning kamligi, zararliligi turli xil psixogen shikastlanishlarga olib kelishi mumkin. Tibbiy sir bu bemorlarni deontologik parvarish qilish tibbiy sirlarni birgalikda

saqlash zarurligiga bog'liq. Tibbiy xodimlar chuqur shaxsiy xarakterdagi kasallik haqida ma'lumot berishga xaqli emaslar. Biroq, bu talab boshqa shaxslarga xavf tug'diradigan holatlarga taalluqli emas: venerik kasalliklar, yuqumli kasalliklar, inson immunitet tanqisligi virusi (OITV) infeksiyasi, zaharlanish va hokazolar. Tibbiy xodimning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga rioya etishi nafaqat ularning vazifalarini bajarishga, balki o'z vazifalarini bajarishdan qochish yoki professional bo'lmagan tarzda bajarganligi uchun javobgarlikni ham ta'minlaydi. Tibbiy xodimning faoliyatida ham xatolar, ham tibbiy huquqbuzarlik sodir bo'lishi mumkin. Tibbiy amaliyotda xatolar adashishlar bilan bog'liq tibbiy qonunbuzarliklar o'z kasbiy majburiyatlariga befarq munosabatda bo'lishdan kelib chiqadi. Xuddi shunday jinoyat, masalan, dori vositalarini noto'g'ri qo'llash, ayniqsa, kuchli dori-darmonlarni ko'plab qo'llash fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bemorlarga har tomonlama yordam berish va shifokor ko'rsatmalarini to'la to'kis amalga oshirishni ta'minlaydigan tadbirlar majmuasi davoning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli kasalliklarda bemorni parvarish qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Shu bilan birga barcha bemorlarga tegishli umumiy parvarish qoidalari mavjud. Kasallarning ma'lum bir tartibga amal qilishi, to'g'ri ovqatlanishi, shifokor buyurganlarini to'liq bajarishi, bemor ahvolini uzluksiz kuzatib borish, shuningdek dard tufayli zaiflashib qolgan organizmni boshqa kasalliklardan himoya qilish ham bemorni parvarish qilishning bir ko'rinishidir. Bemorlarni parvarishlashda shifokor lozim bo'lgan tartibni tavsiya etadi, ya'ni qimirlamay yotish tartibi, umumiy tartib (faol harakat qilishga ruxsat beriladi). Bemor o'ziga o'zi bemalol qaray olsa ham, unga yaqinlari iloji boricha qulay sharoit yaratib berishlari, kayfiyatini buzmasliklari, shifokor ko'rsatmalarini amalga oshirishini kuzatib borishlari lozim. Bemor uyida davolanadigan bo'lsa, u yotgan xona alohida, ozoda, yorug', iliq harorat 18-20° bo'lishi, kunda uch mahal ertalab, kunduzi va kechqurun uxlashdan oldin shamollatib turilishi kerak. Bemorga shifokor ruxsat bergan bo'lsa, haftada 1 marta uni cho'miltirish mumkin. Agar bunga ruxsat berilmasa, kundalik yuvib tarashdan tashqari, bemor badanini qaynagan suv yoki maxsus eritmalarga ho'llangan latta bilan artib turiladi. Bemor qattiq terlasa, kiyimi tez-tez almashtirilib, badani quruq sochiqqa artiladi (badani doim quruq va toza turishi kerak). Yuz, bo'yin va gavdaning yuqori qismini kunda yuvib turish, qo'lni har safar ovqatlanishdan oldin yuvish kerak. O'rnidan turmaydigap bemorlar oyog'ini karavot ustiga togora qo'yib, haftada 2 – 3-marta yuviladi. Ogir yotgan bemorlarning jinsiy a'zolari va orqa peshovi sohasi har gal hojatdan keyin yuvib turiladi. Sochni har kuni iliq suv bilan namlab tarab, toza tutiladi, tirnoqdarni haftada bir olib turiladi. Bemor tishini kuniga 2 mahal yuvib, har gal ovqatlangandan keyin og'zini chayib turishi lozim. Quloqdar iliq suv va sovun bilan yuvib turiladi, unda kir yig'ilib qolsa, 3% li vodorod peroksid eritmasidan bir necha tomchi tomizib, so'ngra paxta pilikcha yordamida ehtiyotlik bilan tozalanadi. Ko'zdan kiprik va qovoqlarning yopishib qolishiga sabab bo'ladigan suyuqlik ajralmalari chiqib tursa ertalab yuvintirish vaqtida kuzni ehtiyotlik bilan iliq suvda paxta bo'lakchasi bilan yuviladi. Yotgan bemorlarga tuvak va siydikdon tutishdan oldin tozalab yuviladi va dezinfeksiyalanadi. Bemorning haroratini ertalab va kechqurun ulchab, yozib qo'yish juda muhim, chunki haroratning o'zgarishiga qarab, kasallikning qanday o'tayotganini va davolashni natijasini bilish mumkin. Bemor ovqati oqsil, uglevod, yog',

mineral tuzlar, vitaminlarga boy bo'lishi kerak. Bemorni kuniga 4 mahal ovqatlantirish lozim. Ovqatlarning xilma-xil bo'lishi, dasturxonni chiroyli qilib bezash bemorning ishtahasi ochilishiga yordam beradi. Ko'pgina kasalliklarda shifokorning o'zi parhez taomlar buyuradi lekin o'zi bilganicha parhez qilish yaramaydi. Ayrim kasalliklar (ayniqsa, me'da ichak kasalliklari)da oz- ozdan har zamonda ovqatlanish tavsiya etiladi. Og'ir yotgan bemorlarga ovqat qoshiq bilan oz-ozdan beriladi. Ichimlik va suyuq ovqatlar (qaynatma sho'rva, kisel va boshqalar) jo'mrakli maxsus idishchalarda beriladi. Bemorning uyqusiga, kayfiyatiga, es hushining joyida ekanligiga qarab turish muhim ahamiyatga ega. Bemorni xayajonlantiradigan, uning kayfiyatini buzadigan gaplarni gapirish mutlaqo mumkin emas. Bemor ma'yus bo'lib xomush, tushkun kayfiyatga tushib qolsa uni tinchlantirish, unga dalda berish ma'qul. Bemor yotgan uyda tinchlik saqlash uning yaxshi dam olishiga va miriqib uxlashiga yordam beradi. Terining rangiga, toshmalar bor yo'qligiga, qichishishiga, gavda haroratiga, yuz ko'zlar ifodasiga e'tibor berish va o'zgarish sezilsa, tezda shifokor chaqirish lozim. Shuningdek siydik va najas rangining o'zgarganligi, dori-darmonlar qanday ta'sir etayotganligini kuzatib borish hamda barcha ma'lumotlarni shifokorga yetkazib turish kerak. Agar doridan toshmalar toshsa, qichishsa, ko'ngil aymsa, bu qaysi dori bilan bog'liqligini aniqlab va uni qabul qilishni to'xtatib, darhol shifokorga xabar berish kerak va shifokor tavsiyasiga ko'ra aytilgan dorilarni o'z vaqtida beriladi. Dori darmonlar quruq, ayrimlari qorongi va salqin joylarda saqlanadi va bemorlarga shifokor tavsiyasi bo'yicha to'g'ri taqsimlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. X.T.Maxmudova //TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI/ 12-SON. 19.10.2022. 841-845.

2. Parpiyeva O.R, Rainjonova Kh.G. qizi //The role of a nurse in patient care// Международный научно-практический журнал “Мировая наука” Выпуск № 11(32) – 2019. 56-59 page

3. Parpiyeva O.R, Jamoliddinova U.A.Qizi //PROTECTION OF THE HEALTH OF CHILDREN AND ADOLESCENTS// Международный научно-практический журнал “Мировая наука”. Выпуск № 11(32) – 2019. 53-55 стр

4. Parpieva O.R, Solieva Z.A. //THESE IMPORTANT THANKS// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Выпуск №4 (34) – 2018. 85-87 стр

5. Мирзажонова, Элеонора Топволдиевна. «Системность социокультурной адаптации детей с особыми потребностями как условие эффективности» *Актуальные вопросы современной психологии, конфликтологии и управления: взгляд молодых исследователей*. Екатеринбург. 2020. 5-15.

6. Мирзажонова Э.Т. АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

ОБРАЗОВАНИЯ// VIII Махмутовские чтения. Интеграция региональной системы профессионального образования в европейское пространство. – 2021. – С. 301-306.

7. Н Ахмаджонов, А Рўзиматова //ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР НЕМИС ХАЛҚИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИНИНГ КЎЗГУСИДИР// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 10-SON. 20.08.2022. 104-109

8. N AKHMADJONOV //Phraseological units is a mirror of the German national culture// Scientific journal of the Fergana State University, 2018 №2. 83-85.

9. Rakhmatillo Shukurov Mirzatillayevich, Ahmadjonov Nurbek Zokirjonogli //Precedent names in the artistic text as allusive names// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8 August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. P. 46-52 page

10. AN Zokirjon o'gli, AS Baxromjon o'gli //ANALYSIS OF POETONYMS IN PROSE WORKS// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal.

11. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Eleonora Topvoldievna Mirzajonova // The role of psycho-oncology in the treatment of cancer patients// Texas Journal of Medical Science. Vol. 9. 06-2022. 14-17 page.

12. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 2022 y 9-SON. 211-218 betlar.

13. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Khomidov Abdullajon Adham oglu // To study the practical problems of attention and memory processes in children with speech defects// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 130-135 page.

14. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.

15. Ganieva Khalimakhon Akhmatkxonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 page.

16. Водяха С.А., Мирзажонова Э.Т. ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ КАК УСЛОВИЕ ИХ БЛАГОПОЛУЧНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 631-635.